MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY QARASHLARIDA ODOB-AXLOQ VA SIYOSIY-FALSAFIY TAFAKKUR MASALALARI

Turobov Yorqinjon Yoqub o‘g‘li
Renesans ta’lim universiteti katta o‘qituvchisi

Anotatsiya: *Maqola XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati va uning yetakchilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy qarashlarini o‘rganadi. Behbudiy ijtimoiy-siyosiy islohotlarni axloq, ma’rifat va ilm-fan bilan uzviy bog‘liq deb bilgan. Uning fikricha, jamiyatdagi tanazzulning asosiy sababi ichki parokandalik va ma’naviy qoloqlik bo‘lib, siyosiy barqarorlik va milliy taraqqiyot axloqiy yuksalish orqali ta’minlanadi. Maqolada Behbudiy maktab va matbuotni ijtimoiy-siyosiy ongni shakllantirish vositalari sifatida ko‘rib chiqadi, shuningdek, Yevropadagi boshqaruv tizimlari tahlili orqali siyosiy mas’uliyat va qonuniy boshqaruvning axloqiy asoslari ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, odob-axloq, siyosiy tafakkur, ma’rifat, maktab, matbuot, madaniyat, ijtimoiy barqarorlik, diniy tarbiya.*

XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan murakkab ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hodisa sifatida namoyon bo‘ldi. Bu harakat vakillari, xususan Mahmudxo‘ja Behbudiy, siyosiy islohotlarni axloqiy yetuklik va ma’rifiy yuksalish bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilgan, tor milliy mahdudlikni qat’iy rad etib, Turkiston hududida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatlarini uyg‘unlashtirish, jamiyatni ichki ixtilof va ziddiyatlardan xoli etish g‘oyasini ilgari surgan. Uning nazarida milliy tanazzulning asosiy sababi tashqi mustamlakachilikdan ko‘ra ko‘proq ichki parokandalik, jaholat va

ma’naviy qoloqlik bilan bog‘liq edi, shuning uchun jamiyatni isloh qilish eng avvalo inson ongini va axloqini yuksaltirishdan boshlanishi lozim edi.

Jamiyatdagi tanazzul, axloqiy me’yorlarning buzilishi, ilmga beparvolik va siyosiy mas’uliyatsizlikning tabiiy oqibati sifatida baholanib, Behbudiy maktab va matbuotni ijtimoiy-siyosiy ongni shakllantirishning asosiy vositalari sifatida ko‘rdi. “Samarqand” gazetasi sahifalarida dunyodagi siyosiy jarayonlar tahlil qilinib, o‘quvchini fikrlashga undovchi ruhda yoritildi, xususan Bolqon urushlari haqidagi maqolalarida xalqaro siyosatning ichki mexanizmlari ochib berildi va urushga xolis munosabat siyosiy voqelikka axloqiy mezonlar asosida qarash zarurligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, adolatsizlikka asoslangan siyosiy kelishuvlar kelajakda yanada yirik fojialarga sabab bo‘lishini oldindan anglash, uning tafakkurining chuqur tahliliy va mas’uliyatli xarakterga ega ekanini namoyon etdi. Bundan tashqari olimning siyosiy mazmundagi ishlari qatoriga “Qonuni Ovro‘po” nomli maqolasini ham kiritish joiz. Oddiy xalq uchun tushunarli, sodda va ravon tilda yozilgan ushbu maqola “Qonunlar har mamlakatning ahvoliga va siyosatig‘a muvofiq yozilur, xalq vakillari tarafindan tahrir topilib, mamlakatning podshosig‘a topshirilur”, - degan mulohazalar bilan boshlanib, Yevropa mamlakatlaridagi hukumat boshqaruvi tahlil etiladi. Ular uchta, ya’ni monarxiya, parlament, respublika turlariga bo‘lib o‘rganiladi. Siyosat masalasi qonun, boshqaruv va jamiyat mas’uliyati bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilinib, Yevropa davlatlaridagi boshqaruv shakllari tahlili hukumat shakliga emas, balki boshqaruvning axloqiy-siyosiy asoslariga qaratildi. Qonunlarning xalq manfaatiga mos ravishda ishlab chiqilishi, vakillik institutlarining faoliyati va mashvarat tamoyilining ustuvorligi siyosiy barqarorlikning muhim sharti sifatida ko‘rsatildi, shaxsiy hukmronlikka asoslangan tizimlar esa ilmli va ongli jamiyatda uzoq yashay olmasligi ta’kidlandi. Turkiston jamiyatining siyosiy zaifligi eng avvalo ma’rifiy va axloqiy qoloqlik bilan izohlandi. Rossiya Davlat dumasiga munosib vakil yetishmasligi jamiyatda siyosiy mas’uliyatni o‘z

zimmasiga ola oladigan yetuk shaxslar kamligi muammosini ochib berdi. Bunday shaxslar faqat ilmli, keng dunyoqarashga ega va axloqan pok bo‘lgan muhitda shakllanishi mumkinligi sababli ta’lim masalasi siyosiy vazifa darajasiga ko‘tarildi. Shu nuqtai nazardan maktab va maorif jamiyatni uyg‘otuvchi asosiy kuch sifatida talqin qilindi. Axloqiy tanazzul jamiyatning kundalik turmush tarzida yaqqol ko‘rindi; to‘y va marosimlardagi isrof, behuda urf-odatlar va qarzga botib obro‘ orttirishga intilish faqat maishiy muammo emas, balki jamiyatning iqtisodiy va siyosiy kelajagiga xavf soluvchi omil sifatida baholandi. Isrofchilik natijasida xalq kambag‘allashadi, iqtisodiy mustaqillik yo‘qoladi va siyosiy jihatdan ham zaiflashadi, bu esa axloqiy nuqsonlar bilan siyosiy qoloqlik o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Diniy asoslar ham tanqidning mustahkam poydevori bo‘ldi; Qur’on va Hadislarga tayanib, isrof, jaholat va beparvolikning Islom ta’limotiga zidligi ko‘rsatildi, shuningdek, din jamiyatni axloqiy va siyosiy jihatdan yuksaltiruvchi manba sifatida talqin qilindi. Haqiqiy dindorlik faqat ibodat emas, balki jamiyat oldidagi mas’uliyatni chuqur anglash sifatida tushuntirildi. Ilm-fan va madaniyat masalasi alohida o‘rin tutdi, “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” asarida jamiyat taraqqiyotining bosqichlari ilmiy asosda tahlil qilindi va madaniyatli jamiyatni tartib, ilm, qonun va axloq ustuvor bo‘lgan tuzum sifatida tavsiflash orqali siyosiy boshqaruv ham ilmiy va axloqiy me’yorlar asosida amalga oshirilishi ko‘rsatildi.[1] Asarda Behbudiy insoniyat va jamiyat hayotini chuqur tahlil qilib, jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini uch xil shaklda tavsiflaydi: birinchisi — vahshiylik, ikkinchisi — badaviylik va uchinchisi — madaniylik. U vahshiylik jamiyatini shunday ta’riflaydi: “Vahshoniyat jamiyatida shakllari inson va barcha harakatdagi it-ko‘ppakdan badtardurki, insonlarni bidoyat holi yoinki ilmu adabsizlik martabasidur”. Ikkinchi guruh, ya’ni badaviylar, vahshiylikdan taraqqiy qilgan yoki madaniyatdan tanazzul qilgan kishilarni ifodalaydi. “Bu toifani umrlari mol boqmoq, yemoq, yotmoq

[1] Behbudiy M. “Tanlangan asarlar”. Toshkent, 1999. B.20-27.

ila sarf bo‘lub, jamiyati bashariyag‘a keragicha yordamlari yetmaydur. Chunki ilmlari kamdur”, — deb yozadi Behbudiy. Uchinchisi, madaniyatli yoki shahariy jamiyatni tashkil etuvchi kishilar, Behbudiy ta’rificha, ilm, tajriba va tartib asosida ishlashadi. “Bularni aksar ishlari tartib va tajriba, ilm va fan va qoida bo‘yicha bo‘ladur. Maktab, madrasa, masjid, mahkama, ruhoniy-ulamo, ibodatxona, amir, hukmron, podshohlari bordur”, — deya u izohlaydi. Shu tarzda, Behbudiy jamiyatning madaniy yetukligi va barqarorligini inson faoliyati, ilm-fan, ma’rifat va axloq bilan bevosita bog‘laydi.

Bundan tashqari, Behbudiy Yevropadagi davlat boshqaruv tizimlarini tahlil qilgan. U ularni uch turga ajratadi: birinchisi — idorai mutlaqa (monarxiya), ikkinchisi — idorai mashruta (konstitutsiyali parlamentli hokimiyat), uchinchisi — idorai jumhuriyat (respublika). Har bir turga alohida izoh berib, ularning ijtimoiy hayot va fuqarolarning erkinligiga ta’sirini tushuntiradi. U shuningdek, bu davlatlarda aksar fuqarolar ilmli bo‘lib, jamiyatni boshqarishda malaka va bilimga asoslangan yondashuv mavjudligini ta’kidlaydi. “Ilmsiz hukumatlardek necha million xalqni maishati, raftoi, ixtiyori bir nafar odam — podshohning ixtiyor yoki hukmig‘a bog‘liq bo‘ladi. Ushbu sabablardandurki, ozgina Ovro‘po xalqi butun kurrai arzg‘a hokim va mutasarrifdir. Sabab hukumat, ilm va davlat, qonuni musovot, mashvarat va tadbirdur”, — deya xulosaga keladi. Shu tarzda, Behbudiy asarida madaniyat, ilm-fan va ta’lim jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida namoyon bo‘lib, shaxsiy fazilatlar, ijtimoiy tartib va siyosiy barqarorlikni uyg‘unlashtiradi. U nafaqat geografik va astronomik bilimlarni yetkazadi, balki jamiyatni yaxlit tizim sifatida tushuntiradi, madaniyatli jamiyatni yaratish uchun ilm, hunar va din zarurligini kuch bilan ta’kidlaydi.

“Usuli jadid” maktablarining tashkil etilishi bu qarashlarning amaliy ifodasi bo‘lib, o‘quv jarayonida axloqiy tarbiya, tarixiy xotira, til va madaniyat masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Diniy bilimlar bilan birga tarix, geografiya, hisob, til va axloq fanlari o‘qitilib, yosh avlodni zamonaviy

dunyoqarashga ega, ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga qaratildi. Taraqqiyparvar milliy madaniyat rivojida tubdan o'zgarishi lozim bo'lgan eng muhim jihatlardan biri, Behbudiy fikricha, maishiy turmush tarzidagi illatlar va kamchiliklarni bartaraf etish edi. Uning "Bizni kemirguvchi illatlar", "Ehtiyoji millat", "Millatlar qanday taraqqiy etarlar?" va "A'molimiz yoyinki murodimiz" kabi maqolalarida o'sha davrda maishiy hayotdagi salbiy odatlar keskin tanqid ostiga olingan. Behbudiy yozishicha: "Qo'ldaki bor nimarsamizni to'yu azog'a, behuda odatlarga sarf etarmiz. Ko'rpamizga qarab oyog' uzatmaymiz. Qarz ila imorat, to'y, fisqu boylik qilarmiz, isrof qilarmiz. Oxiri 'xusrud dunyo va oxira' bo'lurmiz. Bu sabab ila faqirlik darajasiga tushurmiz. Bir karra diqqat qilinsun. Bir yahudiy, bir o'rus, bir armani hech vaqt to'y degan baloga besh ming so'm, hatto bir-ikki ming so'm sarf qilganini eshitilmaydur. Biz bo'lsa yigirma ming so'mlab sarf etarmiz."[2]

U shuningdek, jamiyatdagi to'y va marosimlarning haddan tashqari isrofi hamda bu odatlarning ijtimoiy oqibatlarini ochib beradi: "Har kuni sudda naqadar hovli, xona, bog' sotilur. Bu nimaning jazosi? To'y, ma'raka, ta'ziya, ko'pkari, bazm… Bir mahallada ahdi savod yigirmadan bir yo'q. Imoni islomni dalillari bilan bilaturg'onlarni nari qo'yduk. Erta qozilar barham bo'lsa, zamoncha qozi bo'laturg'on birgina kishi o'n million Turkistonda yo'q… To'yu ma'raka qilinsun, ammo hozirgidek isrof etmasdan qilinsun. Va mumkin qadar kichik qilinsun. Va ortiqcha pul bilan bolalarni musulmon va rusiy yaxshi o'qitilsin. To'yu ma'rakaga sarf qilinadigan oqchani eski madrasa, mazor va masjid hamda maktablarni ta'mirlashga sarf qilinsun… Aqchalik otalar, albatta, to'y va ma'rakaga qizg'onmaganlaridek, bolani o'qitishga ham qizg'onmasalar kerakdur. Bolalar uchun zamoncha tarbiyatxonalar (pansiyonlar) ochmoq lozim bo'lib, ular milliy va diniy ruhga mos bo'lishi zarurdir."[3]

[2] Mahmudxo'ja. Oh, bonklar biznk barbodetdi! // Oyina, 1914. № 19
[3] Behbudiy M. A'molimiz yoinki murodimiz // Oyina. 1913. №7.

Behbudiy, shuningdek, boshqa millatlarning ham to‘y va urf-odatlardagi tafovutlarini misol qilib keltiradi: “Ma’lum bir shaharda yahudiylar ba’zan o‘luklarini oqshom eltib ko‘marlar. Na uchun? Kunduzi ishdan qolarlar. Biz bo‘lsa, o‘luk va to‘y uchun haftalar, hatto oylar bilan ishdan qolurmiz.”[4] Shu orqali u maishiy hayotdagi ortiqcha xarajat va qarzga botish kabi illatlarning zararini Qur’on va Hadislarga tayangan holda isbotlaydi. Eng achinarlisi, xalq bu urf-odatlarni bajarish yo‘lida o‘zini yillar davomida og‘ir moliyaviy yuk ostida topadi va undan xalos bo‘la olmaydi.

Behbudiyning har bir asarida axloq, siyosat va ma’rifat bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida namoyon bo‘lib, mustamlakachilik sharoitida zo‘ravonlik yo‘lini emas, ma’rifat orqali ijtimoiy ongni o‘zgartirish va axloqiy yetuk shaxslarni tarbiyalash yo‘lini tanladi. Yoshlar va kattalarni ilm-fan, mehnat va birlik asosida harakat qilishga chaqirish orqali millat taqdirini o‘z qo‘liga olish g‘oyasi ilgari surildi. Ta’lim va tarbiya e’tiborsiz qolgan jamiyatda na siyosiy erkinlik, na muxtoriyat barqaror bo‘la oladi. Shu nuqtai nazardan, Behbudiy qarashlarida odob-axloq va siyosat bir-biridan ajralmagan, balki jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi yagona tizimning tarkibiy qismlari bo‘lib, axloqiy tanazzul siyosiy qoloqlikka olib keladi, axloqiy yuksalish esa siyosiy uyg‘onishning muhim sharti hisoblanadi. Shu jihatdan uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari bugungi kunda ham nazariy va amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Behbudiy M. Tarix va jug‘rofiya. // Oyina. 1914. 27-son. – 502-505-b.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. -T.:Ma’naviyat, 1999.- B. 228.
3. M. Ehtiyoji millat // Sovet O‘zbekistoni. 1990.
4. Behbudiy M. Oh, bonklar biznk barbodetdi! “Oyina”. 1914. № 19

[4] Behbudiy M. “Bizni kemirguvchi illatlar” Oyina 1915. N»13.

5. Behbudiy M. A’molimiz yoinki murodimiz, “Oyina”. 1913. №7.
6. Behbudiy M. “Bizni kemirguvchi illatlar”, Oyina 1915. N»13.
7. Zunnunov A. Xayrullaev M. Pedagogika tarixi. -T., 2002.
8. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarg‘a murojaat. “Oyina”. 1914. 41-son.